



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI  
RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI RAISING**

**BUYRUG‘I**

20- 02 2024-yil

№ 23-40h

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoni  
ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom oziqlanishni ta‘minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan Strategiyasi tasdiqlanib, unga muvofiq:

transchegaraviy hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashish hamda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va chorva hayvonlari mahsuldorligini barqaror oshirish uchun qishloq joylarda maslahat-axborot tizimlarini va bilimlarni oshirish xizmatlarini takomillashtirish Oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta‘minlash maqsadlaridan biri ekanligi;

chorvachilik tarmoqlarini barqaror rivojlantirish uchun naslchilik ishlarini jadallashtirish;

bozor mexanizmlariga mos rag‘batlantirish tizimini joriy etish hisobiga chorva va parrandalar sonini, go‘sht, sut, tuxum, baliq va asal ishlab chiqarish hajmlarini aholi sonining o‘shishiga mutanosib ravishda oshirib borish;

baliq mahsulotlari ishlab chiqarishda samaradorligi yuqori bo‘lgan zamonaviy intensiv texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, baliqchilikning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, yuqori malakali kadrlarni jalb etishga va ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish lozimligini;

oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini nazorat qilish tizimi bir necha davlat organlari (Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi) tomonidan tayyor mahsulotlarga nisbatan xulosa berish orqali amalga oshirilayotganligini;

qishloq xo'jaligida foydalaniladigan o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, hayvonot dunyosini davolash preparatlari ustidan nazorat qilishda, tarkibida faol moddalar bo'lgan pestitsidlarni ro'yxatdan o'tkazish, sotish va ulardan foydalanish kabi muhim sohalarni tartibga solishda katta bo'shliqlar mavjudligini;

oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini nazorat qilish bo'yicha bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar va laboratoriya xodimlari yetishmayotganligi va ularni xalqaro akkreditatsiyadan o'tishi uchun zarur bo'lgan muntazam malakani tasdiqlash sinovlaridan o'tishlarini milliy darajada hal etilishini ta'minlash;

oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi ustidan davlat nazoratini yagona tizim orqali boshqarish, bunda turli idoralardagi funksiyalarni yagona tizimga keltirib, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi inspeksiyasini tashkil etish kabi ustivor maqsadlar nazarda tutilganligi inobatga olinsin.

3. Farmonga muvofiq sohaga yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha nazorat-reja ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Markaziy apparat boshqarma va mustaqil bo'limlar boshliqlari, hududiy veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish organlari va muassasalari rahbarlari Farmon bilan tasdiqlangan Strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi", O'zbekiston Respublikasida 2024 – 2028 yillarda oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha Chora-tadbirlar dasturi hamda Qo'mita nazorat-rejasida belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlasin.

5. Investitsiya va innovatsiyalarni jalb etish boshqarmasi (A.Bozorov), "Chorvachilik sohasini rivojlantirish 2-bosqich loyihasini amalga oshirish guruhi" davlat muassasasi (N.Najimov) Oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasini rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun "Chorvachilik sohasini rivojlantirish (2-bosqich)" hamda "Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirishni moliyalashtirish" loyihalari doirasida jalb qilingan mablag'lar hisobidan 40 million AQSh dollarini yo'naltirish bo'yicha Jahon banki va Fransiya taraqqiyot agentligi bilan kelishuvga erishilganligiga e'tibor qaratsin.

6. Devonxona mudiri (A.Axadov) ushbu buyruqni hududiy veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish organlari hamda muassasalariga yetkazilishini ta'minlasin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Raisning birinchi o'rinbosari Sh.Djabbarov zimmasiga yuklatilsin.

Rais



B.Norqobilov

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish  
qo'mitasi raisining  
" 20.02 2024 yildagi  
23-iyul -son bo'yruig'iga ilova

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi "Respublikada oziq-ovqat xafsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-son Farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha NAZORAT - REJA**

T/r	Farmon bandlarining mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijrochi	Ma'sul
1.	Chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirish uchun naslchilik va ozuqa tadqiqotlari ishlarini jadallashtrish.	Chorvachilik sohasining barqarorligini ta'minlash, bunda naslchilikni barqaror rivojlantirish va chorva ozuqalari bo'yicha olib borilayotgan amaliy tadqiqot ishlari yuzasidan har chorakda Muvofiqlashtiruvchi kengashga axborot kiritib borish.	2024-2030 yillar	Chorvachilikda naslchilik ishlarini tashkillashtirish boshqarmasi boshlig'i M. Matyakubov, Ozuqa yetishtirish va oziqlantirishni tashkillashtirish bo'limi boshlig'i F.Oqboev	Raisning birinchi o'rinbosari Sh.Djabbarov
2.	Chorva va parrandalar sonini, go'sht-syt, tuxum, baliq va asal ishlab chiqarish hajmini aholi sonining o'sishiga mutanosib tarzda oshirib borish.	Oq go'sht (baliq, quyon, parranda va hokazo), sut, tuxum, baliq va asal ishlab chiqarish hajmini va qo'shilgan qiymatini oshirish maqsadida parrandalar va boshqa mahsulotlar sonini oshirish bo'yicha hududlar kesimida har yilgi prognoz parametrlarni ishlab chiqish va chora-tadbirlari dasturlarini qabul qilish.	Har yili dekabr	Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i U.Ismailov	Raisning birinchi o'rinbosari Sh.Djabbarov

T/r	Farmon bandlarining mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijrochi	Ma'sul
3.	<p>To'yingan yog'li mahsulotlar, osh tuzi, shakar va yog'li mahsulotlarning o'rmini bosuvchi kerakli mikro-makroelementlar va oqsilga boy mahsulotlarning (mevasabzavot, dukkakli, rezavor, baliq, sutli mahsulotlar, asal va boshqalar) iste'molini oshirishni targ'ib qilish.</p>	<p>1. O'zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari, me'yorlari, va gigienik normativlarini (SanQvam) Alimentarius kodeksi (Jahon sogliqni saqlash tashkiloti va FAO) talablari asosida qayta ko'rib chiqish va yangilashda;</p> <p>2. Ommaviy axborot vositalari, Ijtimoiy tarmoqlar orqali sog'lom ovqatlanish madaniyatini targ'ib qilishda;</p> <p>3. Sog'liqni saqlash tizimi va oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis kadrlarni tayyorlash (nutritsiolog) hamda ularni "Sog'lom ovqatlanish" dasturiga jalb etishda;</p> <p>4. Mavjud oziq ovqat mahsulotlari zaxirasiga asoslangan holda milliy ovqatlanish bo'yicha ko'rsatmalarni ishlab chiqishda ishtirok etish.</p>	<p>2024 yil III chorak</p>	<p>Diagnostika ishlarini tashkilloshirish va monitoring qilish boshqarmasi boshlig'i S.Hasanov, Jamoatchilik bilan aloqalar (axborot xizmatlari) bo'limi boshlig'i A. Suyunov</p>	<p>Raising birinchi o'rinbosari Sh.Djabbarov</p>
4.	<p>Sut va zardobni qayta ishlash bo'yicha yangi zamonaviy ob'ektlarni ishga tushirish hamda mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, sutni qayta ishlash quvvatlarini 3 million tonnaga yetkazish.</p>	<p>1. Tayyor sut mahsulotlarini ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini o'zlashtirish, xorijiy tajribalarni tahlil qilib borish.</p> <p>2. Mavjud quvvatlardan samarali foydalanish, modernizatsiya qilinadigan korxonalar ro'yxatini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich amalga oshirish.</p>	<p>Doimiy 2024-2028 yillar</p>	<p>Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i U.Ismailov</p>	<p>Raising birinchi o'rinbosari Sh.Djabbarov</p>

T/r	Farmon bandlarining mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijrochi	Ma'sul
		<p>3. Mahsulotlarning ozuqaviy va biologik qiymatini oshiradigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, yangi avlod qadoqlash materiallaridan foydalanish orqali mahsulot turlarini kengaytirish chorasini ko'rish.</p> <p>4. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali sutni qayta ishlash quvvatlarini ishga tushirish uchun yangi loyihalarni shakllantirish va jirosini ta'minlash.</p> <p>5. Sutni qayta ishlash korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2024-2028 yillar</p> <p>2024-2028 yillar</p>		
5.	Go'shtni qayta ishlash quvvatini 450 ming tonmaga va darajasini 22 foizga yetkazish.	<p>1. Go'shtni chuqur qayta ishlash, gondan oziq-ovqat, tibbiy-proflaktika, texnik va ozuqa mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish, shuningdek, aholi tomonidan talab yuqori bo'lgan yarim tayyor go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish.</p> <p>2. Zamonaviy ob'ektlarni qurish va chorva mollarini birlamchi qayta ishlash tashkilotlarining salohiyatini oshirish.</p> <p>3. Go'shtni qayta ishlash korxonalarida</p>	<p>2024-2028 yillar</p> <p>2024-2028 yillar</p> <p>2024-2028 yillar</p>	<p>Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i U.Ismailov</p>	<p>Raisning birinchi o'rinbosari Sh.Djabbarov</p>

T/r	Farmon bandlarining mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijrochi	Ma'sul
		ma'nan eskirgan yekuna va texnologiyalarni modernizatsiya qilish.			
6.	O'zbekiston go'sht sanoatini rivojlantirish, xavfsizligi hamda ragobatbardoshligini oshirish maqsadida amaldagi normativ hujjatlarni va texnik reglamentlarni BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Yelning normativ hujjatlari bilan uyg'unlashtirish.	1. Amaldagi Go'sht va go'sht mahsulotlari xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament loyihasiqa tegishli o'zgartirishlar kiritish va bunda, go'shtni qayta ishlash korxonalarida ekologiyaga ta'sirini kamaytirish choralarini ko'rishda ishtirok etish.	2024 yil avgust	Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i U.Ismailov, Yuridik ta'minlash bo'limi boshlig'i A.Tashkulov	Raisning birinchi o'rinbosari Sh.Djabbarov
7.	Chorva mollari uchun energiya tejankor va innovasion texnologiyalar asosida zamonaviy qushxonalar tashkil etish.	1. Chorva mollari uchun energiya tejankor va innovasion texnologiyalar asosida zamonaviy qushxonalar tashkil etish dasturini ishlab chiqish. 2. Dasturni tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024yil noyabr 2024 yil dekabr	Diagnostika ishlarini tashkillashtirish va monitoring qilish boshqarmasi boshlig'i S.Hasanov	Raisning birinchi o'rinbosari Sh.Djabbarov
8	Parranda go'shtini qayta ishlash bo'yicha yangi korxonalarni ishga tushirish, ularni zamonaviy uskuna va texnologiyalar bilan jihozlash.	1. Parrandachilikni yanada rivojlantirish, sohada ozuqa bazasini yaxshilash hamda yangi loyihalarni amalga oshirish dasturini ishlab chiqish. 2. Parranda go'shtini qayta ishlash bo'yicha yangi korxonalarni ishga tushirish, shu jumladan parrandachilik komplekslari nevizida ham qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha investitsiya loyihalarni	2024yil dekabr 2025-2028 yillar yanvar oyida	Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i U.Ismailov	Raisning birinchi o'rinbosari Sh.Djabbarov

T/r	Farron bandlarining mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijrochi	Ma'sul
		<p>shakllantirish.</p> <p>3. Korxonalarini zamonaviy uskuna va texnologiyalar bilan jihozlash maqsadida har yili O'zbekistonda uskuna va jhoz ishlab chiqaruvchi xorijiy kompaniyalar mahsulotlari ko'rgazmasini tashkil qilish.</p>	Har yili		
9.	<p>Go'shtni gayta ishlash mahsulotlari, jumladan, pishirilgan kolbasa ishlab chiqarishni 15,5 ming tonnaga, sosiska va sardelkalarini 7 ming tonnaga, dudlangan va yarim dudlangan kolbasalarni 43 ming tonna va go'shtli konservalarni 350 tonnaga yetkazish.</p>	<p>1. Go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>2. Dasturga muvofiq ishlab chiqarishning prognoz hajmini belgilash.</p> <p>3. 2024 yil uchun belgilangan prognoz hajmga erishilishini ta'minlash.</p>	<p>2024 yil may</p> <p>2024 yil may</p> <p>2025 yil yanvar</p>	<p>Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i U.Ismailov</p>	<p>Raisning birinchi o'rinbosari Sh.Djabbarov</p>